

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Azizova Sabina Fahriddinovna

Nizomiy nomidagi

TDPU 4-bosqich talabasi. +93 343 14 43

Annotatsiya: *Ushbu maqolada integratsiyaning afzalliklari, o‘quvchilarga qanday ijobiy ta‘sir etishi, boshlang‘ich sinflarda integratsion darslarda qanday zamonaviy usullar qo‘llanilishi haqida.*

Ka‘lit so‘zi: *Ta‘lim, ta‘lim tizimi, ta‘lim poydevori, Integratsiya, integrativ dars, fanlararo aloqadorlik, metod, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik yondashuv, qiziqish, yosh fiziologiyasi, dars.*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlarini hamda umum bashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi", deb qayd etilgan.

O'quvchilarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarga qiziqtirishda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin.

Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'p maqsadli va rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Har bir o'quv predmetini o'qiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi.

Integratsiya darslari bugungi o'quvchilar uchun ayni muddao bo'lib, ularni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya'ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida

tuzilgan qo‘llanma kitoblardagi har bitta mashqlar, rasmlar, turli qiziqarli savollar o‘quvchilarni har tomonloma chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang‘ich sinfdan boshlab raqobatlashaoladigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan. Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘lik yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rganish lozim. Integratsiya - “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, u tafakkurning o‘shish jarayonlari turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona narsaning yaratilishidir.

Jahon ta’lim tizimini o‘rgangan holda, O‘zbekistonda integratsiyalashgan ta’lim 2022-yildan boshlang‘ich sinflarga joriy etildi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’lim berishning zamonaviy metodlarining o‘rni va ulardan foydalanishda quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- Darsni qiziqarli tashkil etishni;
- Vaqtga alohida e'tibor beriah
- O'qituvchi o'z ustida ishlashi
- O'quvchini yoshiga va fikrlash qobiliyatiga alohida e'tibor berish
- Darsni qiziqarli metodlar orqali tashkil etish

XULOSA Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ma’lumotlar bazasini o‘quvchilarning yosh xususiyatiga moslab jamlagan ma’qul. Negaki, haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar va bolaning yoshiga mos bo‘lmagan tushunchalarning dars davomida qo‘llanilishi o‘quv faoliyatining inqiroziga olib kelishi aniq. Bu jarayonda o‘quvchiga mavzu qiziq tuyilmaydi va bola darsda zerikib, charchab, asabiylashib qolishi mumkin. Eng asosiysi, bola asosiy negizidagi sodda tushunchani farqlamaydi va o‘zlashtira olmaydi. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan manbalar va berilgan takliflarni inobatga olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07. 2. <https://lex.uz/acts/-3107036> 3. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013. 4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova."Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009. 5. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. I-sinf "O'qish kitobi", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018. 6. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. I-sinf "Ona tili", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018. 7. Ziyonet.uz 8. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research in educational sciences", 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889> 9. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.
10. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472. 11. Салойдинов, С. К. (2021).

- Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.
12. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", Special issue, 116-121.
13. Сардоржон Кодиржон Угли Салойдинов. (2022). Инновационное решение для получения биогаза. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", 2(3), 280-285. <https://doi.org/10.26907/2541-7743.2022.2.280-285>
14. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi-T.: "ILM ZIYO", 2009. 15-b.
15. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya-T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 396-b.